

Qayd raqami

F-64



“Tasdiqlayman”

Buxoro davlat universiteti rektori

O.X.Xamidov

« 30 » 08 2021 y.

**ASOSIY O'RGANILAYOTGAN CHET TILI
FAN DASTURI**

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha

Ta'lim sohasi: 120000 - Gumanitar fanlar

Ta'lim yo'nalishi: 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish
(roman-german tillari)

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS-Kreditlar	
AO'CHT20159	2021/2022	1-8	96	
Fan/modul turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari	
Majburiy	O'zbek/rus		10	
1.	Fanning nomi	Auditoriya dars mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yukdama (soat)
	Asosiy o'rganilayotgan chet tili	1230	1650	2880
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga kasbiy yo'nalish doirasida tilning og'zaki va yozma shakllarini o'rgatish, ularning ijtimoiy-madaniy muloqot malakalarini rivojlantirish, xususan o'rganilayotgan chet tilining funksional shakllari va uslublarini, til to'g'risidagi amaliy va nazariy bilimlarini takomillashtirish hamda egallangan bilim, ko'nikma, malakalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo'llay olishlarini ta'minlashdir.</p> <p>Fanning vazifasi – umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlarga ko'ra talabalarning o'rganilayotgan chet tilini C1 darajada egallashlari uchun zaruriy bilimlarni integrallashgan tarzda o'rgatish va muloqot malakalarini rivojlantirish.</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlar)</p> <p>Asosiy o'rganilayotgan chet tili fani quyidagi 6 ta moduldan iborat: Og'zaki nutq amaliyoti, O'qish va yozish amaliyoti, Amaliy fonetika, Amaliy grammatika, Madaniyatlararo kommunikatsiya, Matbuot tili. Mazkur dasturda o'rganilayotgan tillarning har biri bo'yicha mavzularni keltirib o'tish imkoniyati yo'q. Shu sababli dasturda talabalar o'rganilayotgan chet tilini C1 darajada o'zlashtirishlari nazarda tutilgan holda modullar mazmuni keltiriladi. Mavzular ishchi dasturlarda semestrlar va kurslar kesimida batafsil yoritiladi.</p> <p style="text-align: center;">1-Modul. Og'zaki nutq amaliyoti</p> <p>Matn va manbaa turlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - dialoglar, suhbatlar; - telefon orqali muloqot; - jamoat joylaridagi e'lonlar (masalan, temir yo'l vokzali, aeroportdagi e'lonlar); - ko'rsatmalar, yo'riqnomalar (masalan, auditoriyadagi o'qituvchining 			

¹Ushbu dasturga "Filologiya va tillarni o'qitish (roman-german filologiyasi)" ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi "Asosiy o'rganilayotgan chet tili" fani bo'yicha ma'lumotlar kiritilgan. Ishchi dasturlarni tuzishda yo'nalishlar xususiyatiga qarab, shu yerda keltirilgan mavzulardan muhim va dolzarb bo'lganlari tanlanishi maqsadga muvofiq.

ko'rsatmalari, ovqat tayyorlash, velosipedni (texnika vositalarini) ta'mirlash singari oson ko'rsatmalar);

- tele va radio xabarlar, ob-havo ma'lumotlari;
- monologlar (masalan, prezentatsiyalar, nutqlar);
- tele va radio hujjatli fil'mlar;
- badiiy fil'mlar;
- qo'shiqlar
- audio kitoblar va h.k.

Strategiyalar va ko'nikmalar:

- matnni tinglab, uning asosiy g'oyasini angelay olish;
- matnni tinglab, undagi muayyan ma'lumotni (masalan, sanalar, ismlar) farqlash;
- so'zlashuvchining kayfiyati, hissiyotlari va munosabatini aniqlay olish;
- turli kommunikativ nutq vaziyatlari (salomlashish, kechirim so'rash, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish va h.k.) ni to'g'ri o'zlashtirishi;
- o'ziga yoqqan va yoqmagan narsalar, jihatlar haqida fikrini bayon etishi;
- o'zi haqida shaxsiy ma'lumotlarni bera olishi;
- o'qish va kasbga oid mavzulardagi dialoglarda ishtirok etib, ma'lumot almashish;
- so'zlovchi nutqini tushunganligi yoki yaxshi angelay olmaganligini ifodalashi (masalan, so'zlovchidan gapini yana bir marta takrorlashni, izohlash, savol berish va h.);
- muloqotni davom ettira olish;
- interv'yu olish va savollarga javob qaytarish;
- tanish mavzularda muhokamalarda qatnashishi;
- navbat bilan muloqotga kirishishi, so'zlovchining nutqini bo'lmasligi yoki bo'lishga to'g'ri kelgan vaziyatlarda muloqotni davom ettirishi;
- muloqotni boshlash va tugallash strategiyalarini egallashi;
- jummalarni perifraza qilish va qaytadan ta'kidlashi;
- og'zaki muloqotda tegishli milliy-madaniy me'yorlarni (masalan, iltimos va rahmat so'zlarining turli madaniyatlarda ishlatilishi, salomlashish odobi) bilishi va ularni to'g'ri qo'llashi;
- muloqot jarayonida tegishli imo-ishoralardan (masalan, diqqat bilan tinglayotganligini ko'rsatish uchun oldinga sal engashish, tushunayotganligini ifodalash uchun bosh irg'ashi) o'rinli foydalanishi;
- tegishli intonatsiya va urg'udan foydalanib, hissiyotlarini ifoda eta olish;
- turli mavzularda davomiy dialogga kirishish;

- avvaldan tayyorlangan holda interv'yularni olib borish, ma'lumotlarni tekshirish va tasdiqlash, qiziqarli javoblarga e'tibor qaratish;
- muhokamalarda tegishli izohlar, argumentlar va sharhlar bergan holda o'z fikrini bayon qilish va uni himoya qilish;
- o'z qiziqishlariga oid mavzularda batafsil hisobotlar;
- yangiliklar, interv'yular yoki hujjatli fil'mlardan parchalar mazmunini qisqacha bayon etish;
- rasmiy vaziyatlarda dolzarb mavzularda bo'yicha o'z nuqtai nazarini ifoda etish;
- debatlarda asosiy ma'ruzachi sifatida ishtirok etish.

2-Modul. O'qish va yozish amaliyoti

O'qishni o'rganishdagi matn va manbaa turlari:

- taomnomalar, retseptlar;
- jadvallar;
- kichik hikoyalar;
- goroskoplar;
- shaxsiy xatlar;
- kundaliklar;
- informatsion bukletlar, broshyuralar (fil'mlar, ko'rgazma va hokozolar haqida), sayyohlik yo'riqnomalari;
- yangiliklar bayoni;
- tanish mavzularga oid qisqa gazeta maqolalari;
- she'rlar;
- internet matnlari (bloglar);
- e'lonlar (grantlar, sayohat manzillari haqida);
- qo'llanmalar/instruksiyalar (texnik vositalar, asboblarga uchun);
- qomusiy maqolalar;
- gazeta va jumallardagi maqolalar (yangiliklar, ma'ruzalar, katta hajmdagi maqolalar, xalqaro ilmiy jurnallarda o'rganilayotgan chet tilida chop etilgan maqolalar);
- tahlil bayon etilgan qisqa ma'lumotlar;
- asarlardan keltirilgan parchalar;
- internet matnlari (bloglar, veb-saytlar);
- ensiklopedik maqolalar;
- professional mavzulardagi turli sohalarga bag'ishlangan maqolalar;
- ma'ruzalarda keltirib o'tilgan g'oyaga nisbatan bildirilgan fikrlar va muhokama qilingan hisobotlar

Strategiyalar va ko'nikmalar:

- asosiy fikrlarni anglash/bilish uchun o'qish;
- g'oyani bilish uchun o'qish;
- maxsus ma'lumotni olish uchun o'qish;
- so'zlarning kontekstdagi ma'nosini topish;
- diqqat bilan o'qish;
- ko'z yugurtirib o'qish;
- tez o'qish;
- o'qish jarayonida uchraydigan muammolarni aniqlash va ularni tuzatib borish;
- past ovozda yoki ovoz chiqarib o'qish;
- takroran o'qish;
- yuzaki o'qish;
- lug'atlarga tez-tez murojaat qilish.
- xulosa yasash, "qatorlar orasi" ma'noni anglash
- xulosa qilish va yozma bayon etish
- muallif fikrini yoqlash yoki inkor qilish va uni asoslash;
- tahlil qilish;
- sintez qilish;

Yozishni o'rganishda quyidagi tur matnlarni yaratish bo'yicha ko'nikmalar shakllantiriladi:

- tabriknomalar va taklifnomalar;
- shaxsiy ma'lumotnomalar, anкета savollari;
- sodda xatlar, eslatmalar, qaydlar;
- voqea-hodisa, odamlar va predmetlar tasviriga bag'ishlangan xatlar, matnlar;
- rasmiy va norasmiy xatlar;
 - e-mail, internet forumlariga xatlar;
- norasmiy elektron xatlar
- turli maqsadlardagi xatlar;
- yozma tanqidiy, rad javobi (masalan, biznesdagi hamkoriga)
- rezyume va tarjimai hol;
- kichik hikoyalar;
- taom retseptlari;
- shaxsiy kundalik
- bayonnomalar (masalan, ijtimoiy tadqiqotlar, jamoa muammolari, ta'lim jarayoniga oid muammolar va b.)
- kitob yoki fil'mlarning qisqa taqrizi;

- hisobotlar (uchrashuv hisobotlari, tashrif hisobotlari);
- tadqiqot hisobotlari;
- yaxshi va yomon tomonlarini baholash va tahliliy hisobot;
- fikr bildiruvchi insho;
 - “qarshi yoki qarshi emaslik fikrini bayon etuvchi” insho;
- bahs munozarali insho turi
- tanqidiy bayonlar;
- voqea-hodisalar sharhi;
- maqola sharhi.

Yozma nutqni rivojlantirishdagi grammatik tamoyillar:

- gap tuzish (gapda soʻz tartibi);
- gapda ega va kesimning oʻrni, moslashuvi;
- gap turlari (oddiy, qoʻshma gaplar);
- bogʻlovchilar va kirish soʻzlari;
- soʻz tanlash (rasmiy va norasmiy uslubdagi soʻzlar va h.)
- punktuatsiya

3-Modul. Amaliy fonetika

Amaliy fonetika moduli oʻz ichiga quyidagi mavzu va til materiallarini qamrab oladi:

- nutq tovushlari, nutq oqimi, intonatsiya, talaffuz tizimlari, uslublari;
- nutq tovushlarining uch tomonlama xarakteri: akustik, artikulyatsion va lingvistik ;
- nutq tovushlarining akustik xususiyatlari: balandlik, kuchlilik, tembr, choʻziqlik ;
- tovushlarning shovqin (undosh) va musiqaviy ton (unli)larga boʻlinishi ;
- nutq tovushlarining artikulyatsiyasi: talaffuz (nutq) apparati ;
- tovush hosil boʻlish faza(davr)lari: nafas chiqarish, ovozning hosil boʻlishi, nutq organlarining muayyan holatga qoʻyilishi (artikulyatsiya) ;
- artikulyatsiya fazalari: kirishish (nutq organlarini muayyan holatga qoʻyish), saqlash (qoʻyilgan holatni tutib turish), qaytish (tutib turilgan holatning buzilishi, yaʼni boshqa holatga oʻtishi) ;
- aktiv va passiv nutq organlari ;
- tilning artikulyatsiya bazasi ;
- fonema tushunchasi ; fonema va tovushning oʻzaro munosabati ;
- fonetik yozuv (transkripsiya), tilning talaffuz normasi (orfoepiya) ;
- grafika va orfografiya ;

- o'rganilayotgan chet tilining artikulyatsiya xususiyatlari ;
- unlilar artikulyatsiyasining hususiyatlari va tasnifi ;
- tarixiy va ritmik cho'ziqliklar ;
- burun unlilarining nazalizasiyalashuv xarakteri ;
- undoshlar va ularning xususiyatlari ;
- yarim undoshlar (yoki yarim unlilar) ;
- nutq oqimi tushunchasi, nutq oqimi birliklari: artikulyatsion birliklar (bo'g'inlar) va aksent-semantik birliklar (ritmik guruh va sintagma) ;
- bo'g'inning yasalishi, bo'g'in hosil qiluvchi va bo'g'in hosil qilmaydigan tovushlar ;
- nutq oqimida tovushlarning birikish hodisalari ;
- intonatsiya va uning tarkibiy qismlari ;
- tilda urg'uning o'mi ;
- assimilyatsiya hodisasi va turlari ;
- talaffuz uslub (stil)lari ;
- versifikatsiya (she'r tuzilishi) ;

4-Modul. Amaliy grammatika moduli

-Amaliy grammatika moduli mazmuni quyida til qonuniyatlari va grammatik qoidalarini o'z ichiga oladi:

- o'rganilayotgan chet tilining grammatik tuzilishi.
 - morfologiya va sintaksisring o'zaro aloqalari.
 - grammatik kategoriyalar.
 - so'zlarni tasnif qilish, so'z turkumlari.
 - fe'llarning tuslanish guruhlari.
 - aniq va majhul nisbatlar.
 - mayl va zamon.
 - sodda va qo'shma zamonlar.
 - zamonlarning moslashuvi.
 - fe'llarning birlik va ko'plik shakllarining ifodalanishi va ularning shaxslari ;
- fe'lning shaxssiz shakllari: infinitiv, hozirgi zamon sifatdoshi, o'tgan zamon sifatdoshi, ravishdosh.
- shaxssiz qurilma.
 - fe'lning sintaktik vazifasi.
 - ot so'z turkumi va ularning turlari.
 - otning grammatik kategoriyalari.
 - ko'plik formaning yasalishi.
 - otlarning ko'plik shaklini yasashda ulardagi orfografik va fonetik o'zgarishlar.

- artikl', olmosh va determinativlarning roli.
- artikl' va uning turlari.
- sifat so'z turkumi va uning turlari.
- sifatning grammatik kategoriyalari.
- sifatlarda rod va ko'plik shakllarining yasalishi.
- sifatlarning qiyosiy darajasi.
- sifatning gapdagi o'rni.
- sifatlarning sintaktik vazifalari.
- olmosh so'z turkumi va uning turlari.
- olmoshlarning fe'l oldida qo'llanish tartibi va ularning turlari.
- olmoshning gapdagi vazifasi.
- ravishning ma'nosiga va shakliga ko'ra tavsifi.
- ravishning sintaktik vazifasi.
- ko'makchilarning turlari va vazifasi.
- bog'lovchilar turlari va qo'llanish usullari
- asosiy sintaktik bo'laklar, so'z birikmasi, sodda gap, qo'shma gap.
- so'z birikmasi.
- sodda gap.
- bosh va ikkinchi darajali bo'laklar.
- gapning asosiy belgilari - kesim va ohang.
- gaplarni tasnif qilish.
- bo'lishli va bo'lishsiz gaplar.
- gap bo'laklari o'rtasida sintaktik aloqaning ifodalanish yo'llari; so'z tartibi, moslashish, birikish, boshqaruv, ko'makchilar, bog'lovchilar va ohang.
- gapning asosiy bo'laklari.
- ikkinchi darajali bo'laklar.
- vositali va vositasiz to'ldiruvchi.
- gapning ikkinchi darajali bo'laklarining ifodalanish usullari.
- so'z tartibi.
- qo'shma gap va uning turlari.
- bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap.
- ergash gapli qo'shma gap.
- sintaktik aloqalarning ifodalanish usullari: ergashtiruvchi bog'lovchilar va ularning sinonimiyalari.
- ergash gaplarda sinonimik konstruksiyalar.
- ko'chirma va o'zlashtirma gaplarning ishlatilishi va berilish yo'llari.

5-Modul. Madaniyatlararo kommunikasiya moduli

Modul mazmuni quyidagilardan iborat:

- madaniyatlararo muloqot, xalqaro madaniy kompetentlik atamalari;
- madaniyatlararo muloqotda ekstralingvistik masalalar (dunyoqarash, marosimlar, urf-odatlar, inson a'zolari tili, tabular, stereotiplar, turli madaniyatlarda jamiyatning o'rni);
- chet tili darslarida til va madaniyat (salomlashuvlar, mulozamatni aks ettirish, murojaat qilish yo'llari, idiomalar va h.k.);
- madaniyatlararo ziddiyat, to'qnashuvlarga sabab bo'luvchi omillar, madaniy shok, madaniy o'ziga xoslik, xalqaro madaniyatda o'zligini asrash;
- madaniyatlararo muloqotga o'qitish uchun o'quv materiallari (adabiyot, gazetalar, TV, internet, rasmlar, realiyalar, fil'mlar, ramzlar va h.k.) dan foydalanish;
- o'zga madaniyatga tegishli mavzularni o'qitish va materiallarni yaratishda o'ta hushyor bo'lish, materiallarni tahlil qilish (darsliklar, dars ishlanmalari/konspekt, topshiriqlar/vazifalar);
- o'zga madaniyat mavzulari uchun o'quv materiallarini yaratish (3 ta maqsad: til, pedagogika, madaniyat);
- globallashuv va hozirgi kunda o'rganilayotgan chet tilining muloqotda xalqaro til sifatida ishlatilishi;
- o'rganilayotgan chet tilining xalqaro jamiyatda e'tirof etilgan til sifatida qo'llanilish darajasi (ijtimoiy va siyosiy omillar - bunda o'rganilayotgan chet tilining uzoq tarixiga emas, balki hozirgi maqomiga ko'proq e'tibor qaratiladi);
- tildagi o'zgarishlar va unga ta'sir etuvchi omillar (masalan, internet, biznes, diplomatiya va h.k.).

6-Modul. Matbuot tili moduli

Matbuot tili modulining asosiy mazmuni quyidagicha:

- ommaviy axborot vositalari va ularning o'ziga xosligi;
- OAVda ishlatiladigan til uslublari;
- OAV tilining o'quvchiga ta'sir qila olish, uning e'tiborini tortish xususiyati;
- OAV turlari tasnifi;
- OAVning jamiyatda tutgan o'rni;
- ma'lumotlarning matbuot materialiga aylanishi;

- reklama va e'lonlar OAVning o'ziga xos janrlari sifatida;
- OAVda etika masalasi;
- elektron OAV va ularning bugungi kundagi ahamiyati;
- axborot vositalarida madaniyatlararo kommunikatsiya masalasi;
- yozma matbuot;
- yozma matbuotning diskursiv va lingvistik o'ziga xosliklari;
- matbuotda standart va ekspressiv til birliklarining aks etishi;
- turli janrdagi matbuot matnlarining tuzilish shakllari;
- maqolalardagi sarlavhalarning tahlili;
- asosiy o'rganilayotgan chet tilida chop etiladigan mashhur gazeta va jurnallar;
- maqola matnidagi ma'lumot turlariga qarab matn ichida uchraydigan leksik va stilistik uslublar va qisqartma so'zlar;
- mahalliy va xalqaro mavzularni yorituvchi matbuot tilining bir-biridan (leksik, grammatik va sintaktik jihatdan) farqlari;
- og'zaki axborot va ularning manbaalari;
- yozma bo'lmagan OAV turlari, ularning auditoriyaga ta'sir qilish uslublari va yozma matbuotdan farqli jihatlari;
- televideniye muhim OAV turi sifatida;
- televideniya beriluvchi turli janrlarga oid ma'lumotlar (axborot beruvchi, axborot-tahliliy ko'rsatuvlar, tok-shou, hujjatli fil'mlar, reklama dasturlari)ning o'ziga xosliklari;
- OAVda siyosiy arboblarining chiqishlari va ularning nutqlarining tahlili;
- matbuot materiallarini tahlil qilish usullari;
- ma'lumotni uzatishda ma'lumotni qisqartirish hodisasi;
- matnlarda ishlatiladigan kommunikativ uslublar: takrorlar, sinonimiya, antonimik konstruksiyalar va h.;
- matnlarda muallif fikrining aks etishi;
- har bir muallifning o'ziga xos ifoda uslubi yaratuvchisi sifatida;
- OAV tilining omma fikrini shakllantirishdagi roli;
- OAV materiallarida metaforalarning qo'llanishi;
- verbal va audiovizual materiallarning o'zaro bog'liqligi;

Har bir modul bo'yicha amaliy mashg'ulotlar mul'timedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

7- Modul. Chet tillari o'qitishning integrallashgan kursi.

Fanni o'qitishdan maqsad talabalarning xorijiy til bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma, malakalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo'llay olishlarini ta'minlash, ularni chet tili bo'yicha bilimlarni baholash nazariyasi va amaliyoti, maqsad va vazifalari bilan tanishtirish hamda baholash mezonlarini ishlab chiqish va aniqlash ko'nikmalarini shakllantirishdir. Shuningdek, chet tilini turli yosh guruhlarida o'qitish usullari va metodlarini hamda o'qitish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yosh bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishni o'rgatishdan iborat. Shu bilan bir qatorda ta'lim yo'nalishi va kasbiy ixtisoslashuv xususiyatlarini e'tiborga olgan holda har xil guruhlarda chet tili samarali o'qitilishini tashkil etishga o'rgatish.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi.

Chet tilini o'rganish jarayonlari moduli bo'yicha:

- chet tilini o'rganish borasidagi nazariyalarini amalda qo'llay olishi;
- til o'rganish va o'qitish metodlari, yondashuvlar va usullar haqida zaruriy bilimlarni o'zlashtirishi;
- chet tili o'rganuvchisi kundaligini yuritish orqali til o'rganish jarayonlari to'g'risida qator hisobotlar tayyorlashi;
- chet tilini o'rganish haqidagi tushunchalar, metodlar va modellarni o'z amaliy tajribalarida, ya'ni muhokama, topshiriq va muammoli vaziyatlarda qo'llashni;

Til sath (yarus)larini o'qitishga kommunikativ yondashuv moduli bo'yicha:

- grammatika, fonetika va leksikani kommunikativ yondashuv asosida o'qitishning afzalliklari haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lishi;
- grammatika, fonetika va leksikani samarali o'qitish va o'rganishga mo'ljallangan materiallarni tahlil qila olishi;
- til tizimlarini kommunikativ yondashuv asosida o'qitish va o'rganishga mo'ljallangan materiallarni to'play olishi;
- korpus tahlili dasturlari asosida leksik va grammatik birliklarning ma'nosi, ishlatilishi va uslubiybo'yoqdorligi masalalarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil etib, pedagogik amaliyotda undan foydalana olishi;
- til tizimini o'qitishda kommunikativ yondashuvdan foydalangan holda

- xatolarsiz, izchil va ravon dars o'tish ko'nikmalarini egallashi;
- til o'rganayotgan o'quvchi va talabalarning xatolarini tuzata olishi;
 - grammatika, fonetika va leksikani o'qitishga mo'ljallangan kommunikativ o'quv materialini yarata olishi;

“Til ko'nikmalarini integrallashgan holda o'qitish” moduli bo'yicha:

- integrallashgan til ko'nikmalarini amalda qo'llash (ma'no-mazmun asosida o'rganish, topshiriqlar asosida o'rganish, loyihalar bilan ishlash);
- muloqotga yo'naltirilgan uslub orqali o'qish, tinglash, yozish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- o'qish, tinglash, yozish va gapirish ko'nikmalarini integrallashgan tarzda o'qitish uslub va predmetlari bo'yicha ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi;

“Darsni rejalashtirish” moduli bo'yicha:

- o'quv dasturini o'rganib, tahlil qilish va darsni rejalashtirishda unga tayanishi;
- darsni rejalashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar (o'quvchilar bilim darajasi va yoshi, ehtiyojlari, vaqt, o'quvchilar soni va h.k.) ni baholay olishi;
- darslar ketma-ketligi, maqsad, vazifalari va kutilayotgan natijalarni to'g'ri belgilashi;
- ta'lim maqsadlariga binoan darsning tegishli tuzilmasini tanlay olishi;
- darsning turli bosqichlari (dars boshlanishi, asosiy va yakuniy qismi) uchun tegishli vazifalarni tanlay olishi va ularni bir - biriga bog'lash, izchillikni ta'minlashi;
- turli yordamchi o'quv materiallari va resurslarni (masalan, texnik vositalar, ko'rgazmali qurollar) tanlashi;
- internetdagi tayyor dars rejalarni tanqidiy tahlil qilishi;
- dars rejasidan chetga chiqish yoki chiqmaslik qarorini qabul qila olishi va ularning sababini asoslab berish malakalarini egallashi;

“O'quv materiallarini tanlash va yangilarini yaratish” moduli

bo'yicha:

- o'quv adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilish va ularni til o'rganayotganlar ehtiyojiga ko'ra (bilim darajasi va yoshi va hokazo) tanlashi;
- o'quv materiallarini yaratish uchun maqsad, vazifa va kutilayotgan natijalarini to'g'ri belgilay olishi;
- ta'lim maqsadlariga ko'ra internet ta'lim saytlaridan unumli foydalana bilishi;
- turli autentik materiallarni (gazeta, jurnallar, televidenie va radio materiallaridan va h.k.) tanlash va ular asosida tegishli vazifalar ishlab chiqa olishi;
- o'quv adabiyotlari jumladan, darsliklarga ehtiyoj sezilgan vaqtda turli yordamchi o'quv materiallari va resurslardan unumli foydalana bilishi;
- yordamchi materiallar jumladan, ko'rgazmali, tarqatma materiallar, audio va video materiallar yarata olish malakalariga ega bo'lishi;

“Til bo'yicha bilimlarni baholash turlari va mezonlari” moduli**bo'yicha:**

- bilim va ko'nikmalarni baholashning asosiy tamoyillari;
- test turlari (diagnostik, rivojlantiruvchi, nazorat testlari);
- turli ta'lim yo'nalishlari xususiyatlariga mos muqobil baholash turlarini tahlil qilishi;
- nazorat turlari va shakllarining milliy va xalqaro tizimlarini bilishi;
- bilimni baholash uchun mezon belgilay olishi va baholash jarayonini to'g'ri rejalashtirish bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishi;
- baholash mezonlarini tanqidiy tahlil qilishi va baholash mezonlarini yaratish malakalarini egallashi;

“Turli yoshdagilarga chet tilini o'qitish” moduli bo'yicha:

- turli yosh guruhlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashi;
- turli yosh guruhlarida qo'llaniladigan o'qitish metodlari, o'quv materiallari, darsni olib borish va baholashdagi o'xshashlik va tafovutlarni tahlil qilishi;
- yosh guruhiga mos ravishda darslarni rejalashtirishi va olib borishi;
- o'quv materiallarini yosh tafovutlarini e'tiborga olgan holda o'zgartirishi, moslashtirishi va yangilarini yaratishi;

“Maxsus yo‘nalish (soha)larda chet tilini o‘qitish” moduli bo‘yicha:

- til o‘rganayotganlar kasbiy yo‘nalishi va ehtiyojlariga qarab chet tilini o‘qitish metodlari va yondashuvlarni tanlashi;
- yo‘nalish xususiyatlaridan kelib chiqib chet tili dasturlarini tuzishi;
- o‘quv materiallarini soha yoki yo‘nalish xususiyatiga ko‘ra tanlashi va moslashtirishi;
- turli soha vakillariga chet tilini o‘qitish ma‘laka va ko‘nikmalarini egallashi lozim.

III. Mustaqil ta‘lim va mustaqil ishlar

Asosiy o‘rganilayotgan chet tili fanidan talabalarning mustaqil ishlashlari uchun eng ko‘p soat ajratilgan. Mustaqil ishga ajratilgan mavzularni o‘rganishning asosiy maqsadi mavzular bo‘yicha ishlash jarayonida auditoriyada olib borilgan amaliy mashg‘ulotlar paytida talabalarda hosil bo‘lgan tasavvur, bilim va ko‘nikmalarni yanada chuqurlatirish, mustaqil xulosalar chiqarish va turli ilmiy-amaliy gipotezalarni olg‘a surishga o‘rgatishdir. Talabalarning mustaqil ishlarining mohiyati ma‘lum mavzular bo‘yicha mustaqil ishlash natijasida og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini mustahkamlash hisoblanadi. Mustaqil ishlarining natijalari mavzular bo‘yicha so‘z va so‘z birikmalarini yodlash, mazkur til vositalari yordamida erkin so‘zlashish uchun dialogik va monologik matnlar tuzish shaklida rasmiylashtirish mumkin. Mustaqil ish uchun tavsiya etiladigan mavzular tegishli bosqichdagi mavzularning mantiqiy davomi bo‘lib, talabanning tashabbusiga ko‘ra erkinlashtirilishi mumkin. Har bir bosqichning o‘ziga xosligidan kelib chiqib, mustaqil ish shaklan turli darajada va xilma-xil bo‘lishi mumkin.

Mustaqil ishlarining natijalari mavzu bo‘yicha annotatsiya, referat, ma‘ruza, tezislar, konspekt, retsenziya shaklida rasmiylashtirishi mumkin.

Talabaga, mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha dars materiallarini o‘zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fan bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabalarning o‘quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan

fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

IV. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- Interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

3.

V. Kreditlarni olish uchun talablar:

Talabalardan til kompetensiyalariga va modullar mazmunini aks ettiruvchi asosiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, ya'ni chet tilida og'zaki nutqni tushunish, o'z fikrini chet tilida bayon qilish, o'qish va yozish mahoratini namoyon qilish, chet tilining fonetik va grammatik qonuniyatlarini, tili o'rganilayotgan va chet tilida so'zlashuvchi xalqlarning madaniyatini anglash hamda chet tilida chop etilgan turli matbuot manbaalaridagi autentik materiallarni tushuna olish talab qilinadi. Fan doirasida talabalar Yevropa Kengashining "Chet tilini egallash umumiyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi umumetirof etilgan xalqaro me'yorlari (CEFR) ga ko'ra kurslar kesimida A2 – C1darajaga mos keladigan til materiallarini tushunish, mazmunini tahlil qilish, mavzularga oid turli matn turlarini o'qib, tinglab mazmunini tushunishlari va o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ifoda eta olishlari shart.

Nemis tili

1. Dallapiazza R.M., Evens S.u.a. Ziel B1, 2, Hueber Verlag, Ismaning. 2015.
2. Ute Koithan, Helen Schmitz, Tanja Sieber. Aspekte B1+. - Stuttgart: Klett Verlag, 2017.
3. Perlmann-Balme Michaela, Susanne Schwalb. Sicher B1+. - München: Hüber Verlag, 2012.
4. Anne Buscha, Sitzilvia Szita. Begegnungen B1+. Schubert Verlag. Leipzig. 2012.
5. Anneli Billina. Deutsch üben. Lesen & Schreiben B1, B2, C1. Hueber Verlag, 2018.
6. Anna Fischer Mitziviris, Sylvia Janke-Papanikolaou. Ausblick B1, Hueber Verlag, Ismaning, Deutschland. 2007.
7. A.To'laganov. D.Karimova. M.Mahmudova. S.Xudoyev va boshqalar. "Nemischa-o'zbekcha lug'at". Buxoro Durдона nashriyoti. 2018.
8. Holiyarov L., S.Abdullayeva u.a. Deutsch mit Vergnügen. Toshkent, O'zkitobsavdo nashriyoti. 2019.
9. Dreyer H., Schmitt D. Lehrund Übungsbuch der deutschen Grammatik. Hueber Verlag. Ismaning. 2009.
10. Saidov S. Deutsche Grammatikin Übungen, Usbekiston, Toshkent, 2003.
11. Ursula Hirschfeld, Kersten Rheinke. Phonotheek Intensiv. -Berlin: Langenscheidt, 2007.
12. Kozmin O.G., Sulemova G.A. Praktische Phonetik der deutschen Sprache. -Moskva, 1990.
13. Swerlova O. Grammatik und Konversation. Langenscheidt. Berlin. 2006.
14. Michaela Perlmann-Balme, Susanne Schwalb. Sicher B2. Arbeits und Kursbuch. -Ismaning: Hueberverlag, 2012.
15. Oliver Bayerlein, Patricia Buchner. Campus Lesen B2+C1.- Ismaning: Hueberverlag, 2013.
16. Hans Jürgen Heringer. Interkulturelle Kommunikation. Grundlage und Konzepte. NarrFrankeAttempo Verlag. Tübingen, 2010.
17. Hans Strohner. Kommunikation. Vandenhoeck & Ruprecht Verlag. Göttingen, 2006.

18. Sussanne Daum, Hans-Jurgen Hantschel. 55 kommunikative Spiele. Ernst KlettSprachen. Verlag. Stuttgart, 2012.






Fransuz tili

1. Sylvie Poisson-Quinton, Reine Mimran. Expression écrite, Niveau 1. France, 2013.
2. Sylvie Poisson-Quinton, Reine Mimran. Expression écrite, Niveau 2. France, 2013.
3. Sylvie Poisson-Quinton, Reine Mimran. Expression écrite, Niveau 3. France, 2013.
4. Sylvie Poisson-Quinton, Reine Mimran. Compréhension écrite, Niveau 1. France, 2013.
5. Sylvie Poisson-Quinton, Reine Mimran. Compréhension écrite, Niveau 2. France, 2013.
6. Sylvie Poisson-Quinton, Reine Mimran. Compréhension écrite, Niveau 3. France, 2013.
7. Annie Berthet, Catherine Hugot. Alter Ego. A2. Hachette, France, 2013.
8. Michel Barféty, Patricia Beaujouin. Expression orale, Niveau 1. France, 2013.
9. Michel Barféty, Patricia Beaujouin. Expression orale, Niveau 2. France, 2013.
10. Dollez C., Pons S. Alter Ego. B1. Méthode de français. Hachette, FLE, 2013.
11. Barféty M, Compréhension orale B1+, B2. Clé Internationale, 2007.
12. Abdoushukurova L.A. Interprétation du texte. Tachkent, 2011.
13. Razzakov M. La presse française. Tachkent, 2012.
14. Windmuller F. L'approche culturelle et interculturelle. Paris, 2011.
15. Marie-Pierre Baylocq Sassoubre, Stéphanie Brémaud, Clara Cheilan, Sergueï Opatski. Édito. A2. France, 2016.

Қўшимча адабиётлар

Nemis tili

1. Z. B. Toshov, Y. B. Ro'ziyev, D. Z. Hayotova, S. S. Xudoyev, Nemis tili fonetikasi. Buxoro 2022
2. Michaela Perlmann Balme, Susanne Schwalb, Dorte Weers. Em. Brückenkurs B1+. Ismaning: Hüber Verlag, 2008.
3. Julia Braun-Podeschwa, Charlotte Habersack, Angela Pude. Menschen B1.1.–München: Hüber Verlag, 2014.
4. Hermann Funk, Christina Kuhn, Silke Demme. Studiod B1.-Berlin: Cornelsen Verlag, 2007.
5. Anneli Billina. Hören und Sprechen B1.– München: Hüber Verlag, 2013.
6. Anna Buscha, Zwiivia Szita. Begegnungen B1+. - Leipzig: Schubert Verlag, 2008.
7. Axel Hering, Magdalena Mattesuk, Michaela Perlmann-Balme. Em-Grammatik. Max Hueber Verlag. Ismaning. 2002.
8. Ines Balcik. Klaus Röhe. Verena Wröbel. Diegroße. Grammatik. Deutsch. Pons. Stuttgart. 2009.
9. Helbig Gerhard. Joachim Buscha. Übungs grammatik Deutsch. Langenscheidt. Berlin-München. 2000.
10. Sabine Dinsel/Susanne Geiger. Grosses Übungsbuch Grammatik. Hueber Verlag. 2009.
11. Sattarov M.Su.a. Grammatisch Kategorien. Usbekistan. Taschkent. 2005.
12. ХАКИМОВА Ф.И., СОДИКОВА Р.Б., АБДУГАНИЕВА Ш.М., БАЙЕР А. Практише Phonetik. –Toshkent, 2013.
13. Нурматов Т.А., Хусанхўжаев Б.М., Э.Х.Жўраев, Т.Очилов. Немис тили фонетикаси. Тошкент, 2002.
14. Тошев З.Б. Немис тили фонетикаси. Бухоро, 2003.
15. Philipp M., Lese-und Schreibunterricht, A.Franke Verlag, Tübingen 2013.
16. Popov P. Übungsmacht den Meister. – Tula, 2006.
17. Funk, Hermann/Kuhn, Christina/ Skiba, Dirk. Dorothea Spaniel-Weise, Rainer E.Wicke. Deutsch Lehren Lernen 4. Aufgaben, Übungen, Interaktion. München: Klett-Langenscheidt, 2017.
18. Rösler, Dietmar/Würffel, Nicola. Deutsch Lehren Lernen 5. Lernmaterialien und Medien. München: Klett-Langenscheidt, 2017.
19. Schart, Michael/Legutke, Michael. Deutsch Lehren Lernen 1. Lehrkompetenz und Unterrichtsgestaltung. München: Klett-Langenscheidt.

6.	<p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <p>Nemis tili www.mein.deutsch www.hueber.de/aspekte www.deutsch.unterricht.de www.grammatik.de www.grammatik-online.de www.lexikon.freenet.de/Literaturdidaktik www.begegnungen-deutsch.de www.schubert-verlag.de/aufgaben/uebungen_b1/b1_uebungen_index.htm</p> <p>Fransuz tili http://www.lepointdufle.net/ http://apprendre.tv5monde.com/ http://enseigner.tv5monde.com/ http://lewebpedagogique.com/ressources-fle/ http://www.franceinfo.fr/ https://leflepourlescurieux.fr/</p>
7.	<p>Fan dasturi Buxoro davlat universiteti kengashning 2021 yil “28” avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan. Fan dasturi Buxoro davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti kengashida muhokama qilingan va tavsiya etilgan. Fan dasturi Buxoro davlat universiteti “Nemis va fransuz tillari” kafedrasida ishlab chiqilgan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchu Mas’ullar: D.H.Karimova  BuxDU, “Nemis va fransuz tillari” kafedras mudiri, katta o’qituvchi M.M.Mahmudova  BuxDU, “Nemis va fransuz tillari” kafedras katta o’qituvchisi N.N.Abdullayeva  BuxDU, “Nemis va fransuz tillari” kafedrasida o’qituvchisi</p>
9.	<p>Taqrizchilar: Z.B.Toshov  TIQXMMIBF kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi N.B.Baqoyev  BuxTI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi</p>



